



**QASHQADARYO VILOYATI  
QAMASHI TUMANI HOKIMINING  
Q A R O R I**

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2021 - yil 30 - sentabr

448-4-58-Q/21

Qamashi tuman hokimligi

**Qamashi tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan  
va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni  
2022- yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini  
belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida” Qonunining 9-bob 38,39,40,41,42,43-moddalari (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020 ü., 03/20/642/1396-son*) va “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining (*O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to ‘plami, 2008 yil, 29-30-son, 277-modda*) 25-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga (*O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 11.12.2017 yil 09/17/965/0393-son*) asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2022- yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

**Q A R O R Q I L A M A N :**

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o‘zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
2. Qamashi tumani bo‘yicha 2022- yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 10 foizi miqdorida, bu 120 kishini (**2-ilovaga muvofiq**) tashkil etadi.

Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 13 foiz (16 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 75 foiz (92 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 2 foiz (2 kishi);

nogironlar uchun 3 foiz (3 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 2 foiz (2 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralar qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar 3 foiz (3 kishi);

odam savdosi qurbanlari uchun 1 foiz (1 kishi);

atrofdagilar uchun xavf to‘g‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasallikkardan azob chekuvchi shaxslar uchun 1 foiz (1 kishi) ekanligi inobatga olinsin.

4. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta‘minlaydigan sanitariya-gigiyena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta‘minlasin.

Bunda:

nogironlar uchun salomatligi va mehnat faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan belgilangan talablar hisobga olingan holda mehnat vazifasini to‘siqsiz bajarish imkonini beruvchi ish joylari;

yoshlar uchun, ular umumta’lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin ularning kasb-hunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari;

14 yoshga to‘limgan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlarini bajarishni birga qo‘sib olib borish imkonini beruvchi, o‘zgaruvchan jadvalli ish joylari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun ularning kasb tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari hisobga olinsin.

5. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorgarligini ta‘minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilsin.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (*ish beruvchi*) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta‘minlashi, bu haqda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

7. Ushbu qarorda nogironlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha nogironlar uchun ish o‘rnlari tashkil etgan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilsin.

8. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanganligi ko’rsatib o’tilsin.

9. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga 3-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida ma’lumot taqdim etsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (*AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 yil*) buyrug‘iga asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olgan holda, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorida ishga qabul qilgan korxona va tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oyi davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash tavsiya etilsin.

11. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (A.Avlayev)ga:

bir hafta muddatda mazkur qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlar e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

12. Tuman hokimining 2020- yil 05-sentabrdagi HQ-721/09-son qarori 2021- yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘ribbosari R.G‘afurov zimmasiga yuklansin.

14. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi



Б.Тофаев

Камаши туман хокимининг  
2021 йил 30 сентябрдаги  
448-4-58-Q/21-сон қарорига  
1-илова

**Qamashi tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o'zgarishiga qarab  
ular uchun belgilanadigan ish o'rinalining eng kam soni va ularga qo'yiladigan  
talablarni aniqlash uchun maxsus komissiyasi**

**T A R K I B I**

T/r	F. I. Sh	Lavozimi
1	R.G'afurov	Tuman hokimining birinchi o'rinosari, <b>Ishchi komissiya raisi</b>
<b>А Ъ З О Л А Р И</b>		
2	A.Avlaev	Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori, <b>Ishchi komissiya raisi kotibi</b>
3	N.Meyliyev	Tuman IIB boshlig'i
4	E.Mulkammonov	Tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i
5	Ch.Nurtaev	Tuman TMEK raisi

Қамаши туман ҳокимининг  
2021 йил 30 сентябрдаги  
448-4-58-Q/21-сон қарорига  
2-ИЛОВА

Qamashi tumani bo'yicha 2022 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band  
qilib qo'yilgan ish o'rirlari to'g'risida  
M A Т L U M O T

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj , ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rirlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo'yicha xodimlar-ning umumiy soni	Kelgusi yilga zahiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rirlari soni	14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolgiz va ko'p bolali ota onalar uchun band qilingan ish o'rirlari soni	Umumi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar uchun band qilingan ish o'rirlari soni	Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Qurolligi Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rirlari soni	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rirlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rirlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga kura tibbiy tusdag'i majburlov choralar qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rirlari soni	Odam savdosiga qurbanlari uchun band qilingan ish o'rirlari soni	Atrofdagilar uchun xavf to'g'dirmaydi-gan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar-dan azob chekuvchi shaxslar uchun	Shu jumladan
1	Tuman Tibbiyot birlashmasi	3147	55	8	43	0	1	1	1	1	0	
2	Yuqumli kasalliklar shifoxonasi	223	4	1	3	0	0	0	0	0	0	
3	Sil kasalliklariga qarshi kurash dispanseri	62	3	1	2	0	0	0	0	0	0	
4	Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazi	140	4	1	3	0	0	0	0	0	0	
5	Tuman Madaniyat bo'limi	68	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
6	4-sonli Mehribonlik uyi	82	3	1	2	0	0	0	0	0	0	
7	Veterinariya bo'limi	42	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
8	Qamashi Davlat O'rmon xo'jaligi	107	8	1	3	1	1	1	0	0	0	
9	"Qamashi Yo'llardan foydalinish" unitar korxonasi	111	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
10	Obodonlashtirish boshqarmasi	217	15	2	9	1	1	0	1	0	1	
11	Toza xudud DUK Qamashi tuman filiali	67	3	1	2	0	0	0	0	0	0	
12	Qamashi tuman Irrigatsiya bo'limi	62	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
13	"Qamashi ishlab chiqarish" MChJ shaklidagi TXJ	52	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
14	Chimkurgon Suvdan foydalinish boshkarmasi	47	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
15	Halq ta'lim bo'limi	76	3	0	3	0	0	0	0	0	0	
16	6-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi	55	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
17	23-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi	49	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
18	Qamashi tuman Axborot-kutubxona markazi	21	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
19	Maktabgacha ta'lim bo'limi	29	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
20	Fermer xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi fermer xo'jaliklarda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	26	2	0	2	0	0	0	0	0	0	
	JAMI	4683	120	16	92	2	3	2	3	1	1	

Камаши туман хокимининг  
2021 йил 30 сентябрдаги  
448-4-58-Q/21-сон қарорига  
3-илова

**Tashkilotning nomi**

---

**Qamashi tuman Aholi bandligiga  
ko'maklashish markaziga taqdim etiladi.**

**Yuridik manzili:**

---



---

**Har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5  
kunigacha**

**2022 yil "\_\_\_" \_\_\_\_ oyi uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va  
mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish  
o'rirlarini zahiraga qo'yish to'g'risida**

**M A T L U M O T**

1. Tuman hokimining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilda zaxiraga qo'yiladigan ish  
o'rirlari, shu jumladan, nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o'rirlari soni.

2. Zaxiraga qo'yilgan ish o'rirlariga ishga joylashtirilganlar soni:

<b>Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar soni</b>	<b>Hisobot davri oxiridagi holati bo'yicha ishlamoqda (kishi)</b>	<b>Ulardan, ishga joylashtirilganlar</b>	
		<b>hisobot oyida</b>	<b>yil boshidan boslab</b>
<b>Jami:</b>			
Shu jumladan:			
o'n to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lган yolg'iz va ko'п bolali ota-onalar			
umumiy o'rtा va o'rtа maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar			
safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar			
nogironlar va pensiya oldi yoshidagi shaxslar			
jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagи majburlov choralar qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar			
odam savdosi qurbanlari			
Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasallikklardan azob chekuvchi shaxslar			

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda  
raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun bo'sh ish o'rirlari soni, hisobot davri oxiriga  
\_\_\_\_\_ ish o'rirlari.

Tashkilotning rahbari

\_\_\_\_\_

(imzo)

Kadrlar bo'limi boshlig'i (inspektor)

\_\_\_\_\_

(imzo)

M.O'.

2022 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

Камаши туман хокимининг  
2021 йил 30 сентябрдаги  
448-4-58-Q/21-сон қарорига  
4-илова

**Tashkilotning nomi**

---

**Qamashi tuman Aholi bandligiga  
ko'maklashish markaziga taqdim etiladi.**

**Yuridik manzili:**

---



---

**Har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5  
kunigacha**

**2022 yil "\_\_\_" \_\_\_\_ oyi uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va  
mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish  
o'rirlarini zahiraga qo'yish to'g'risida**

**M A T L U M O T**

1. Tuman hokimining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilida zaxiraga qo'yiladigan ish  
o'rirlari, shu jumladan, nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o'rirlari soni.

2. Zaxiraga qo'yilgan ish o'rirlariga ishga joylashtirilganlar soni:

<b>Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar soni</b>	<b>Hisobot davri oxiridagi holati bo'yicha ishlamoqda (kishi)</b>	<b>Ulardan, ishga joylashtirilganlar</b>	
		<b>hisobot oyida</b>	<b>yil boshidan boslab</b>
<b>Jami:</b>			
Shu jumladan:			
o'n to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lган yolg'iz va ko'п bolali ota-onalar			
umumiy o'rtा va o'rtа maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar			
safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar			
nogironlar va pensiya oldi yoshidagi shaxslar			
jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagи majburlov choralar qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar			
odam savdosi qurbanlari			
Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasallikklardan azob chekuvchi shaxslar			

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda  
raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun bo'sh ish o'rirlari soni, hisobot davri oxiriga  
\_\_\_\_\_ ish o'rirlari.

Tashkilotning rahbari

\_\_\_\_\_

(imzo)

Kadrlar bo'limi boshlig'i (inspektor)

\_\_\_\_\_

(imzo)

M.O'.

2022 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_